

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIIY MARKAZI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIIY
ISHLARNI TASHKIL ETISH**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun
uslubiy ko'rsatma)*

SAMARQAND - 2020

O.X.Tuxtayev-Samarqand VXTXQTUMOHM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi. «Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish». (Samarqand shahar 30-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi Xayitova Maxbuba Nasirovnaning pedagogik faoliyati tajribasidan). Samarqand VXTXQTUMOHM, 2020-yil. 28 bet

Muharrir: **J.Eshquvvatov** – Samarqand VXTXQTUMOHM
Ilg'or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-
axborot tadqiqotlar bo'limi boshlig'i

Taqrizchilar: **F.Shodiyev**– SamDU, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
va amaliyoti kafedrası mudiri. dotsent.

M.Raximqulova-Samarqand VXTXQTUMOHM
maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrası mudiri. dotsenti.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning mazmuni, boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarning mavjud holati, boshlag'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish usul va vositalari berilgan bo'lib, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun uslubiy yordam beradi degan umiddamiz.

*Uslubiy ko'rsatma hududiy markaz Ilmiy metodik kengashining
2020- yil 26- dekabr 9-sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat
berilgan.*

KIRISH

“Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda
biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan
milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur”

Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda ta'lim – tarbiya jarayonida shunday islohatlar amalga oshirilmoqdaki uni ko'z bilan ko'rib qalb bilan his etish kerak. O'sib, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunning yoshlari ertangi kun davlatimizni ravnaqiga xizmat qiladigan uning buyukligini yanada yuqoriga ko'taradigan, ota-bobolarimiz tomonidan bizlarga qoldirgan ulkan boy ma'naviy merosini boyitib, sayqal berib, takomillashtirib kelgusi avlodlarga yetkazib beradigan shaxs qilib tarbiyalash kerak.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, shaxs qilib voyaga yetkazishda eng muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham biz milliy – ma'naviy qadriyatlarnimizni odobnoma darslari orqali o'quvchilar ongiga singdirishimiz o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni olg'a surib, undan keng foydalanishimiz lozimligini ta'kidlaymiz.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omiliardan biri bo'lib bo'lmoqda.

“Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Harakatlar strategiyasi” asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada

bizning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq" (O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Bugungi kunda ta'lim sifatlarini oshirish va ta'lim sohasini yanada rivojlantirish barcha pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya masalalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini olib kirish orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish ularning dunyoqarashini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Boshlang'ich ta'lim – ta'lim va tarbiyaning bosh poydevoridir. Ushbu poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik mustahkam bo'lgandek, mukammal boshlang'ich ta'lim bilimlariga ega bo'lgan o'quvchilar kelgusida yuqori sinflarda hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladilar.

Tarbiyaviy tadbirlar orqali ular ongida kasb-hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy kadriyatlarga asoslangan yuksak manaviy axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim."Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "madaniy, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashkari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish" ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun - mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy tarixiy an'analariga, urf odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Boshlang'ich ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlarni olib borishning bugungi kunda ijobiy tomonlari shundaki o'quvchi yoshlarni ongini, ma'naviyatini, yuksak salohiyatini yuksaltirishda, barkamol avlodni milliy- ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib va rivojlantirilib borilmoqda.

Mamlakatimizda chuqur va keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutib bormoqda. Jamiyat ma'naviyatini

yuksaltirish - davlat siyosatining ustivor yunalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistan Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999 yil 3 sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab quvvatlash to'grisida"gi Farmoni zahiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatining ustivorligini yana bir karra tasdiqlaydi.



Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator qaror va qonunlar, me'yoriy xujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi ning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, maxalla va maktab nufuzini yanada yukori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

O'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyaviy tadbirlar orqali takomillashtirish muammolari O.Abduquddusov, N. Amatov, Yu.K.Vasiliev, K.D.Davlatov, L.T.Mag'zumov, U.N.Nishonaliev, A.R.Xujaboev, N.Sh.Shodiev, E.T.Choriev va boshka olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish va boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda uni tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarni, axloqiy fazilatlarini shakllantirish-pedagogik, mafkuraviy, g'oyaviy muammo sifatida axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ishlab chiqilgan. Ta'lim – tarbiya jarayonida yosh avlodni tabiat qonun-qoidalarini va ijtimoiy qonuniyatlar zahirida tarbiyalash orqali shubhasiz sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ularga davlat va jamiyatga ongli munosabatda bo'lishiga orqali ibrat –

namuna tizimiga alohida e'tiborni qaratish sog'lom turmush tarziga kompleks yondashuvni anglatadi va u o'z ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ulug' shoirimiz buyuk mutafakkir movlono Furqat ilim-ma'rifatni ko'ngillarning sururi, ko'rar ko'zlarning nuri deb ta'riflagan.

Ma'lumki, xalqimizning eng mo'tabar va mas'uliyatli mashg'ulotlaridan biri tarbiyadir. Mustaqillikka erishilgach, yoshlarda ong va milliy tafakkurini shakllantirish, ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarishga alohida e'tibor berila boshlandi. Zero, bu muhim vazifa faqat ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali hal qilinishi mumkin. Inson ma'naviyati va ma'rifati, aql-zakovati, yuksak axloq – odobi, serqirra iqtidori, salohiyati, diyonati, jasorati va shu kabilar tarbiya mahsulidir.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI.

Tarbiyaviy tadbirlar - turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun kishini ko'zda tutan tarbiyaviy ta'sir majmuidir.

Ta'lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi.

Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar - tarbiya jarayonining bir bo'lagidir, tarbiyaviy tadbirlar -bu tarbiyaning tizimlili, tugalligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy tadbir - tarbiyalanuvchilarning muayyan tarbiyaviy faoliyatiqi tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaklidir. Tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati zaruriylik, foydalilik va tadbiq etish imkoniyatidan iborat. Mazkur vazifalarni hal qilishda ta'lim muassasalari faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalari negizida pedagogik xuquqiy, psixologik ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "ota-onalar va o'quvchi" faoliyatini tashkil etish, bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga qo'yish.

Maktab, oila, mahalla mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari hamkorligining bu yangi tuzilmasi bolalar va katta yoshdagi aholining odob-axloq, g'oyaviy siyosiy, mehnat, iqtisodiy ekologik sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiyasiga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, madaniyat, ta'lim, sport, xalq ta'limi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mahallalarning moddiy ba'zasi va xodimlaridan to'laroq, oqilona foydalanishda amaliy imkoniyatlar beradi.

Ijtimoiy pedagogik markazning afzalligi shundaki, u uzluksiz tarbiya jarayonida tarbiyaning xalqona, milliy asoslarini, ommaviy tarbiya an'analarini amaliyotga joriy qiladi. Bolalar va o'smirlar klublarini ochishda, yoshlar qonunbuzarligining oldini olish va ijtimoiy tartibning buzilishiga qarshi ommaviy kurash olib borish imkoniyatini yaratib beradi.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli ravishda rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy

yetuklikni barqaror etadi:

Islotlarning takdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

– Siyosiy onglik va ijtimoiy faollik ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va vatanparvarlik va baynalminallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

– Xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat'iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bulish;

– Shaxsning ma'naviy, axloqiy sifatlarini tarbiyalash;

– Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, shakllanayotgan milliy mafkurani o'quvchi yoshlar ongiga mukammal etkazish;



– Kishilarni o'z o'zini chuqur anglashini, mustaqillikning mohiyatini tobora teran tushunishi va uning qadriga etishi, milliy tafakkurning takomillashuvini, tarixiy xo'rlik mustaqillik ruxining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasida siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishini tushuntirish.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchi-yoshlarni orsida kuchaytirish zarur. Axloq yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rinni egallab keladi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari buyicha direktor o'rinbosarlari, bolalar etakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Ta'lim tarbiya jarayonini o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlarini, axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruhidagi o'rni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari bolaning axloqiy tarbiyasini tarbiyaviy tadbirlar orqali yuqori darajaga kutara oladi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosligini tushuntirish.

Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, ardoqlash uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim, o'qish uchun uni tanlay olish va uni madaniyatini bilish zarur. Bu ishda o'quvchilarga ustozu, murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Tarbiya muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyani himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Jamiyatda dinning ta'siri ortib borar ekan, yoshlar bilan ishlashda dinga bo'lgan munosabatni to'g'ri shakllantirish, ularga dinni umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tushuntirish lozim. O'quvchilarda dinni alohida dunyoqarash, bilimni esa hayotni mukammallashtirish va rivojlantirish vositasi ekanligini anglatish zarur. Shu bilan bir qatorda dinni niqob qilib olgan diniy ekstremistik oqimlar, ularning yovuz niyatlarini fosh etib berish zarur.

Fuqarolar birligi, millatlararo hamkorlik, rivojlanib borayotgan yosh va mustail mamlakatimizning asosiy negizidir. Respublikamizning mustakil davlat sifatida shakllanishi jarayonida, yosh avlodni jamiyat yangilanishining mohdyatini va zarurligini tushunib o'tadigan, o'zi uchun, o'zi yashab turgan o'lkaning gullab yashnashi uchun, uning taqdiri uchun, o'zga davlat va millat vakillari

bilan do'stu birodarlikni mustahkamlash uchun javobgarlikni his qiladigan darajada tarbiyalash.

Vatanparvarlik — mustaqil. O'zbekiston uchun yanada kengroq ma'no va mazmunga ega so'z bo'lib qoldi.

Bugungi kunda vatanparvar bo'lish bu iqtisodiyotimizni, mudofamizni, barcha millat vakillarining dustona munosabatini o'z bilimi, fidokorona mehnati, a'lo o'qishi bilan mustahkamlashdan iborat.

Har bir o'quvchi Vatan muvaffaqiyatida uning ham shaxsiy burchi va mas'uliyatli vazifalari borligini to'la idrok etsin. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o'quvchilar vatan mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o'zinikidek qabul qiladigan bulsin. Ularning og'irligini o'z elkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi tub o'zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunib yetishsin.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismlaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasidir. Ushbu tarbiya jarayoni o'quvchilarda o'z ona Vatanini himoya qilish tuyg'usi va Vatan harbiy kuch qudratiga nisbatan milliy g'ururni yanada shakllantiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni o'quvchilarga vatanni himoya qilish, harbiy kuchlarning Konstitutsion majburiyatini tushuntirish, turli harbiy va mehnat ana'nalarini targ'ib qilishdir. Shu maqsadda o'quvchilarni amaliy harbiy va texnik tugaraklar, mashg'ulotlariga jalb qilish zarur. Shu bilan birga turli harbiy musobaqalar, turistik sayohatlar, harbiy o'yinlar («Shunkorlar» o'yini), harbiy sport bayramlarini utkazish: «Vatanparvar» deb nomlangan kompleks harbiy sport musobaqalarini muntazam o'tkazib turish; harbiy shon shuhrat muzeylarini, «Yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarlik burchaklari»ni va xonalarini tashkil etish; harbiy qismlarda xizmat qilayotgan yigitlar bilan uchrashuvlar uyushtirish; vatanimizning harbiy qahramonlari to'g'risida davra suhbatlari o'tkazish; xotira solnomalarini tuzish va boshqa vatanparvarlik tarbiyasiga xos faoliyatlar bilan shug'ullanish lozim. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyatni qayta qurish va ma'naviy rivojlanishiga keng sharoit yaratildi. Bozor

iqtisodiyoti turli millat vakillarining o'zaro yaqinlashuvini uyg'unlashtirmoqda. Bu esa umumiy iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo miqyosga olib chiqmoqda. Bozor munosabatlari barcha millat vakillarining, elatlarning, aholining ijtimoiy guruhlarini o'zaro birlashishga, shu tariqa o'zaro kelishuv va hurmat ehtiromning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. O'z kasbini sevish va uning mohir ustasi bo'lish, ijodiy mehnat har bir millat vakili uchun inson holatining asosiy mezoni bo'lib qolmoqda.

Mustaqil O'zbekiston siyosatining fuqarolar tinchligi va milliy totuvlik asosida qurilganini e'lon qiladi. Bunga erishmoq uchun maktablardagi tarbiyaviy ishlarda har bir millat va elatlarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti va qonuniy ravishda ularning o'zligini anglash darajasini o'sishiga olib kelishini nazarda tutish lozim.

O'zining milliy madaniyatiga beqiyos hurmatda bo'lish barobarida O'quvchilarga boshqa elat urf odatlari, an'analariga nisbatan kamsitmaslik va bepisand nazar bilan qarash notug'ri ekanligini ularga muntazam ravishda tushuntirib borish lozim. Hech qanday milliy an'analar kimningdir oriyatiga tegmasligi va dushmanlik munosabatlarini uyg'otmasligi kerak. U samimiy va beg'araz bo'lmog'i lozim. Milliy o'zlikni anglash bu millatlararo munosabatda zaro hurmat va ehtiromni saqlashda seziladi.

Yoshlarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalashda zamonaviy nuqtai nazardan yondashib, unga jamiyat yangilanishining mohiyati bo'lgan demokratiya, insonparvarlik mavjud va yangi tutilayotgan milliy va madaniy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar va o'z navbatida yangicha tarbiyaning o'ziga xos uslub va shakllarini joriy etishni taqozo etadi.

O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda uning milliy o'ziga xosligi, etnopsixologik va etnik ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analariga suyangan holda ish ko'riladi.

Umuminsoniylik — butun insoniyatga xos bo'lgan, madaniy va milliy xususiyatlari ko'p qirrali tushunchadir. Ya'ni, turli millat vakillariga va o'zgacha fikrlovchilarga hurmat va hayrixohlik turli dinlar va boshqa madaniyatlarning o'ziga xosligini tan olish, qadriyatlarning «begonasini» ham hurmatlash demakdir.

Bu jarayonlarda etakchi vazifalardan biri — millatlararo munosabatlar asos bo'lib xizmat qiladi va umuminsoniy qadriyatlar

qo'llangandagina bu jarayon rivojlanish bosqichiga chiqadi.

Umummilliy xalqaro munosabat madaniyatini shakllantirishda darsdan tashqari amalga oshiriladigan tadbirlar katta ahamiyatga ega. Chunki ushbu tadbirlardan ko'zlangan maqsad kishilarning o'zaro axloqiy munosabatlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu tadbirlarda boshqa xalqlarning an'analari va milliy urf-odatlar, Sharq mutafakkirlarining tinchlik, do'stlik ota-onaga muhabbat va sadoqat, mehnatsevarlik kabi pedagogik g'oyalarini o'rganish, baynalmilal do'stlik uchrashuvlarini tashkil etish kabi tarbiyaviy ishlarning turli shakl va usullaridan keng foydalaniladi. «O'zbekiston Vatanim manim» mavzularida ko'rik tanlovlar, bayramlari utkaziladi. O'quvchilar xalq amaliy san'ati, duradgorlik badiiy hunarmandchilik ganchkorlik yog'ochga o'yib yozish, to'qimachilik kabi kasblar faoliyatiga doir to'garaklarga jalb etiladi.

O'quvchilarning vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasini respublikamizda dolzarb muammolardan biri sifatida aniq belgilangan vazifalar asosida amalga oshirish kerak. So'z va ish birligi bilan bolalarda milliylik va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash davlatimiz mustaqilligi va shakllanishi jarayonining muhim jihatidir.

Tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, Davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolar, oila, mehnat, sud ishlarini yuritish va boshqa huquqlarning ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish va ularga so'zsiz rioya etish, tarbiya va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasiz bulish ruhida tarbiyalash, xalqaro xuquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT xavfsizlik kengashi va hokazo) faoliyati o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir.



Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarning eng oddiy, shuningdek ancha asosli huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarini kengaytirishlari hamda mustahkamlashlari uchun keng sharoit yaratib berishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Prezident Devoni, Vazirlar Mahkamasi, hukumat va boshqa organlarning mohiyati va ahamiyati, hududi, ularning kishilar kundalik hayotida zarurligi;

Uzbekiston Respublikasi qonunni muhofaza qilish muassasalarining tashkiliy tuzilishi;

Respublikada hududiy savodsizlik oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish uchun oududiy tarbiya bo'yicha amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarga alohida e'tibor berish talab etiladi. Ko'pgina ma'ruzalar va suxbatlarga oid har bir so'z va pand-nasiat bolaning nozik qalbiga singishi, unda buzuvchilarga qarshi kurashda faol ishtirok etish, eng muximi, uning uzida xududiy bilimlarni urganish xissini uyrotish lozim.

Milliy tadbirlar tarbiya bo'yicha darsdan tashkari ishlar o'quv jarayoni bilan tarkiban va mantiqan uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak. O'quvchilarimiz qiziqishlariga qarab har xil to'garaklar va klublar faoliyatlari hududiy bilimlar konferensiyalari va bahs

munozaralari o'quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, umumiy tarbiyaviy jarayonga mos kelishi zarur. Bunda huquqiy tarbiya bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi umumiy mazmunining ajralmas uzviy qismi ekanligini yodda tutishimiz maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida «Siz qonunni bilasizmi» ko'rik tanlovlarini muntazam o'tkazib borish kerak.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, qonunlarini, ayniqsa, «Davlat tili haqida»gi Qonunning bajarilishi huquqiy tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu maktabdan tashqariva sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda ta'lim muassasalarda o'zbek,tojik, shuningdek rus va boshqa millatga mansub o'quvchilar bilan muayyan ish olib borishni, Respublika an'analarini, milliy xususiyatlarini, etnografiyasini, demografiyasini chuqur bilishni talab etadi.

Respublikada ishlab va yashab turgan har bir fuqoroning ko'p tillarni bilishi hayotiy zaruratdir. Til katta boylikdir, uni bilganlar uchun jahon madaniyatiga, taraqqiy etgan davlatlarga borish ularni milliy madaniyatini o'rganish uchun keng yo'l ochiladi. Biz tilni bilish bilan birgalikda xalq qadriyatlari ,urf odatlari,udumlarini bilamiz.

O'quvchilarga «Diniy tashkilotlar va fuqarolarning vijdon erkinligi» to'g'risidagi yangi tahrirdagi qonun, «Bolalar huquqlari konvensiyasi» asosida tushuncha berilishi, huquqiy bilimlarga bag'ishlangan adabiyotlar yaratilishiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Ijtimoiy pedagogik markazning afzalligi shundaki, u uzluksiz tarbiya jarayonida tarbiyaning, milliy asoslarini, ommaviy tarbiya an'analarini amaliyotga joriy etiladi. Bolalar va o'smirlar klublari ochishda, yoshlar qonunbuzarligining oldini olish va ijtimoiy tartibining buzilishiga harshi ommaviy kurash olib borish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy pedagogik markaz tarbiyaviy ishining samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, barcha bolalar va katta yoshdagi kishilarga pedagogik ta'sir kursatadi.

Ijtimoiy pedagogik markazlar faoliyati turar joy bo'yicha aholining turli guruhlariga tabaqalashtirish asosida yondashish orqali barcha tarbiyaviy, jismoniy sog'lomlashtirish, madaniy dam olish, yaxshilashni ta'minlashga da'vat etishga harakat qaratiladi.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA TARBIYAVIY TADBIRLARNING MAVJUD HOLATI .

Boshlangich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tarbiyaviy ahamiyati avvalo komil insonni shakllantirishning samaradorligini oshirishda eng muhim vazifa bo'lib xizmat qiladi, tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tiborni bola shaxsiga qaratishni, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqqozo etadi.

Tarbiyaviy tadbirlar jarayoninig eng asosiy natijasi har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Tarbiyaviy tadbirlar maqsadi nimalalardan iborat?

1. Boshlangich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarning o'rnini bormi?
2. Tarbiyaviy tadbirlarda doimiy ishtirok etib turasizmi?
3. Tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etgan o'quvchilarda qanday ijobiy o'zgarishlarni kuzatgansiz?
4. Tarbiyaviy tadbirlarga o'quvchilaringizni tayyorlaganmisiz?
5. Tarbiyaviy tadbirlar bilan madaniy tadbirining qanday farqi bor?
6. Tarbiyaviy tadbirlarni ijobiy xususiyatlari nimada?

Ushbu keltirib o'tilgan tarbiyaviy tadbirlardagi savollarni umumta'lim maktabining o'qituvchisiga tarqatilganda quyidagicha javoblarni umumlashtirishimiz mumkin.

40% o'qituvchi yoshlarni aqliy, axloqiy, tarbiyalanishi faqat tadbirlar orqali shakllanmasligi tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishga vaqtlari yo'qligi, tadbirlarda ko'proq ishtirok etgan o'quvchilar darslarni yaxshi o'zlashtiraolmasligini, tadbirlarga o'quvchilarning tayyorlaganini aytishgan.

60% o'qituvchilar esa tarbiyaviy tadbirlar tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni aqliy, axloqiy, milliy bayramlarimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni his etishda tadbirlarning o'rnini ko'rsatib o'tolmaganligidandir.

Tarbiyaviy tadbirlar jarayoni - shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus

tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayonlardan biridir.

Umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish davlat talablari» o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tarbiyaviy ta'lim jihatdan samaradorli tashkil etishga qaratilgan bulib, «Ta'lim to'grisida»gi qonun va milliy dastur asosida ishlab chiqildi.Shu sababdan, mustaqil O'zbekiston yoshlari tarbiyasida uch manbadan foydalanish mumkin. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "Istiqdol va ma'naviyat" asarida quyidagi uch omili ko'rsatib o'tilgan:

1. Umuminsoniy qadriyatlar.
2. Islom ta'limoti.
3. O'zbek milliy urf-odatlari.

Yuqoridagi omillar bir-biri bilan bog'langan bo'lib,buyuk adibimiz,mashhur pedagog A.Avloniy aytganiqek:"Agar inson yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson chiqar...".Mashhur pedagoglardan biri A.Avloniy tarbiyaning inson hayotida zarurligini nazarda tutib "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat,yo falokat masalasidir" deb ta'kidlagan edilar.

Tarbiyaviy jarayon ongli, ma'suliyatli faoliyat bo'lib unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi yosh avlodni ma'naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib voyaga yetkazish san'atining qirralari, shakllari hamda bilim, malaka hosil qilish xaqida baxs yuritadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish metodikasi milliy ong va istiqlool mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uning maqsad va vazifalari:

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari rahbarlari, o'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta'minlashda boy miliy va umuminsoniy qadriyatlardan,urf odatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan manbalarni ajrata bilishi kerak:

–O'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib,

unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi;

– Tarbiyaviy tadbirlar uchun metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilishi;

– Ilg'or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi;

– Yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishi;

– Tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi;

– Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilmini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning usulubiy-metodologik asosi o'tmish xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklari, xalq arboblari, Markaziy Osiyolik mutafakkir, ma'rifatparvar olim, pedagoglarning boy merosidir.

Maktabda boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uni kengaytirish, xozirgi zamon talablari darajasida islox qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Tarbiya jarayoni - tarbiyaviy ishlarni tadbirlarning doimiy harakatdagi faoliyatidan iborat.

Milliy mafkura vazifalari maxsus tashkil etilgan ma'naviy- ma'rfiy ishlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. O'quvchilar faoliyatining darsdan tashkari tizimini loyihalash.

Darsdan tashkari faoliyat tizimi o'qitishning nazariy va amaliy tizimi. Uning asosiy vazifasi O'quvchilarning o'qishdan tashqari vaqti mobaynida o'zini-o'zi tarbiyalash va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish uchun oqilona taqsimlashga yordam berishdir.

O'quvchilarning darsdan tashqari faolligini loyihalash vazifalariga quyidagilarini kiritish mumkin:

– ijtimoiy moslashuv doirasini tashkil etish va o'quvchilarning ijtimoiy harakatchanligini ko'rsatish;

– bo'lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvi uchun zaruriy shart- sharoitlar yaratish;

– o'quvchilarni mustaqil ravishda ta'limni davom ettirishga yo'naltirish;

– har bir o'quvchinig qobliyat,qiziqishi va ishtiyoqlarini

– rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– o'quvchilarga bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni va dam

olishni o'rgatish.

O'qituvchi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishlari kerak.

- O'quvchilar yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- Darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi;
- Tadbir orqali boshlangich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik ,o'zaro yordam kabi ahloqiy sifatlarni tarkib topishi lozim.

Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi birinchi navbatda, o'quvchilarda, o'zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o'z o'rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muxitga qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'lik. Shunday qilib, xususan tarbiya tizimi innovatsiyalarini o'rganish imkoniyati paydo boladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida, har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo'ladi: yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ularing beshtasini alohida urg'u bilan ko'rsatadilar.

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog'lik. Bu yondashish birinchi navbatda, biz ilgari batafsil individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi (lekin uni bola ijtimoiy masalalarini iloji boricha yaxshi o'zlashtirib olishi maqsadi bilan bog'liq yondashish bilan adashtirish kerak emas). Yana bir bor eslatib o'tamiz, individuallashtirish - bizning tushunishimizcha -bu bolada mavjud yoki o'zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o'ziga xosligini ta'minlab turish va rivojlantirish buyicha kattalarning hamda bolalarning o'zining faoliyatlaridir.

Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning ongini oshirishda, ma'naviyatini shakllantirishda asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgidir, bir-biridan farq qiluvchi tarbiyaviy tadbirlarning shakllari, vositalar, moddiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashkari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq kursatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Ommaviy tadbirlardan lavhalar o'quvchilarning qanchalik zavq olayotganini kuzatib, tahlil kilishadi. Tadbirlardan ko'zlangan maqsadlar mavzusida o'qituvchilar bilan davra suxbatlari o'tkaziladi.

Bayramlar,davra suhbatlari,ekskursiyalarga doir tarbiyaviy tadbirlarini tayyorlashda aytiladigan she'r, qo'shiqlar ularning kuylari, sahna bezaklari kiyiladigan liboslar o'quvchilarga qanchalik estetik zavq beradi.

O'quvchilarda guzallikni his ettirishda tadbirlarning o'rni juda katta ekanligi, tadbirlarda ishtirok etgan o'quvchilarda har bir narsaga qiziqish, ishtiyoqi kuzatiladi. Tarbiyaviy tadbir bayramda turli yoshdagi turli qarashdagi kasb egalari, ishtirok etishadi. Bunda o'qituvchi, o'quvchi usti- boshiga, suzlashishiga e'tiborli bo'lishini talab etadi. Maktabdagi bayram tadbirlariga ham o'quvchilar e'tibor bilan tayyorlanishni bu orqali o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyalar shakllanishiga zamin yaratilishini aytib o'tishgan.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH USUL VA VOSITALARI.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir.Shuningdek, boshlangich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ma'naviy-ma'rifiy, millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo'ladi. Bu masuliyat ulardan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning faoliyatini tashkil qilishda. Yo'naltirilgan sinfdan tashkari tarbiyaviy tadbirlarni asosiy xususiyati-o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarning davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni ishlarida bevosita turli mavzudagi suxbatlar, sovol-jovoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi qolaversa, bular orqali bilimi va dunyo – qarashi,fikr doirasi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi.Har qanday tarbiyaviy tadbirlar, mashgulotlar oldida turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgidir, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilik davrlari, yani

ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustakillik bayrami, 2 sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya bayrami, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar bayrami, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8 mart, Navro'z bayrami, Gullar, Mehrjon, Hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o'quvchilarda vatanga mehr muhabbat, sadoqat, e'tiqod tushunchasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot na'munalari muhim manba hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.

2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.

3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishni ta'minlash.

4. O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlashtirish.

5. Tadbirni amalga oshirish.

6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Ushbu bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur ishlab chiqilgan va o'rganilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashkari tadbirlarga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatliligi, ijtimoiy xarakterga e'tibor berish kerak masalan: ertak va maqollar vositasida, tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar.

2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida doimiy ravishda rag'batlantirish.

3. Darsdan tashkari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini topish izlab topish.

4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'sirida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa ona

tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim. Boshlangich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq deb biladi. Buning uchun, avvalo o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, va urf-odatlari haqida bolalarga tushuncha hosil qilish, vatan haqidagi sherlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarini tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi. Milliy bayramlarni boshlangich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini shakllaniradi. Bu kabi tarbiyaviy tadbirlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyo qarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, bunday tadbirlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Xulosa

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar aniq maqsadni ko'zlagan holda rejali ravishda olib borilmoqda. Bugungi kunda voyaga etib kelayotgan o'quvchi-yoshlarning ijtimoyilashuvida, tarbiyaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlar va axloqiy qarashlarini qaror toptirish eng dolzarb hamda muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni milliy ruh asosida shakllantirish jamiyat ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish bilan bogliq bo'lib, uning ahamiyati nihoyatda muhim vazifalardan biridir.

O'quvchi yoshlarga milliy qadriyatlarimizni singdirishga tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalab borish eng muhim vazifalardan biridir.

O'quvchi yoshlarni tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalab borish etarli darajada bulmaganligi muommoga hozirgi davr talab darajasida qarashini taqozo etadi.

O'quvchi yoshlarni tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalash o'z tarixiy tajribalariga ega. Bu borada milliy va ma'naviy qadriyatlarga tayanish va tarbiyaviy tadbirlarning samarali imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi yoshlarni tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalashning bugungi kundagi mavjud holatini o'rganishda va boshlangich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchi yoshlarda milliy tarbiyani shakllantirishda anketa surovlari, tajriba sinov kabi metodlardan foydalanib borish samaradorlikka erishiladi.

O'quvchi yoshlarni tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalashning mazmun mohiyati boyitladi.

O'quvchi yoshlarni tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalashga doir tavsiyalar ishlab chikiladi.

O'quvchi yoshlarni axloqiy tarbiyalash maqsadida faqatgina tarbiyaviy tadbir bayramlarini jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash bilan chegaralanib qolmay, balki milliy qadriyatlar asosida o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar asosida o'z hissasini qo'shish kabilarni amalga oshirishga qaratilishi lozim. O'quvchi yoshlarni milliy kadriyatlar goyasi asosida shakllantirishda yangi usullar vositalar, shakllarni amalga oshirish va ularni

boshqarish va nazorat qilish muhimdir. Bunga, albatta, ayniqsa dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida, shu bilan birga oila, mahalla hamkorligi asosida o'quvchilarni ijtimoyilashuvida milliy qadriyatlarni shakllantirish o'z samarasini beradi. O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarning ta'lim-tarbiyadagi urni juda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika texnologiyalar asosida o'quvchilarning ijtimoylashuvini milliy qadriyatlar asosida shakllantirishga oid tarbiyaviy tadbirlarini bahs, munozara, rol, va pedagogik o'yinli musobaqalar olib borishning metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Mirziyoyev SH. M.. Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston.2017-yil.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch-T.: Ma'naviyat, 2008.
3. T.G`afforova.Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.Toshkent 2012 y."Tafakkur "nashriyoti.
- 4.Gulshan Asatova .2-sinf o`quvchilarini kasb-hunarga yo`naltirish yuzasidan mashg`ulotlar ishlanmalari.Toshkent 2017 y
- 5.Abdurahmonova N, O`rinboeva L. Matematika 2-sinf. O`qituvchilar uchun qo`llanma. "O'zbekiston" NMIV Toshkent - 2016
- 6.Boshlang'ich ta'lim jurnali 11.2018 y.
- 7.Boshlang'ich ta'lim jurnali 2019 y.3-son
- 8.Minavvarov N.K. Oila pedagogikasi.-T.: "O'qituvchi", 2014.
- 9.Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yosxlar tarbiyasi. -T.: "O'qituvchi", 2015.
- 10.Ma'naviyat yulduzlari.-T.: 2018.
- 11.Ortikov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy kadriyatlar.-T.: 2017.
- 12..Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari.-T.: "O'qituvchi", 2011.
- 13..Safarov O., Maxmudov M. Oila ma'naviyati.-T.: 2018.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.ziyonet.uz
- 2.www.pedagog.uz
- 3 www.tdpu.uz

Mundarija:

Kirish	3
Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning mazmuni.....	7
Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarning mavjud holati	15
Boshlag'ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish usul va vositalari	19
Xulosa.....	22
Adabiyotlar ro'yxati	24

TUXTAYEV OLIMJON XALMURADOVICH

**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA TARBIYAVIY ISHLARNI
TASHKIL ETISH.**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: __.05.2020 y.

Bosishga ruxsat berildi: __.05.2020 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.

« Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,75 bosma taboq

Adadi:50nusxa.

Buyurtma № 5/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Boysunqur ko'chasi 3-uy.

